

TOSHKENT ZILZILASI

Shodiyev Sardor Rustam o‘g‘li.

(“Buxoro muhandislik-texnologiya instituti”

“Qurilish muhandisligi” kafedrası o‘qituvchi-stajyori).

Yavkochev Ravshanbek Fazliddin o‘g‘li

(“Buxoro muhandislik-texnologiya instituti”

“Bino va inshootlar qurilishi yo‘nalishi” talabasi

Annotatsiya: 1966-yil 26-aprelda Toshkent shahrida sodir bo‘lgan zilzila shahar tarixidagi eng yirik tabiiy ofatlardan biri hisoblanadi. Magnitudasi 5,2 bo‘lgan ushbu zilzila Toshkentning markaziy qismlarini jiddiy zarar yetkazdi va minglab aholining uy-joysiz qolishiga olib keldi. Ushbu hodisa shaharning seysmik xavfsizlik choralari va zamonaviy qayta qurilish ishlarining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Toshkent zilzilasi oqibatida aholi xavfsizligini ta‘minlash va zilzilaga bardoshli inshootlar qurish bo‘yicha yangi texnologiyalar joriy qilindi, bu esa seysmik xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda ahamiyatli tajriba bo‘ldi.

Kalit so‘zlar:

- *Toshkent zilzilasi*
- *Seysmik xavf*
- *Qurilish xavfsizligi*
- *Zilzilaga bardoshli inshootlar*
- *1966-yil tabiiy ofat*
- *Toshkent qayta qurilishi*
- *Seysmik chora-tadbirlar*

***Аннотация:** Землетрясение, произошедшее в Ташкенте 26 апреля 1966 года, является одним из сильнейших стихийных бедствий в истории города. Землетрясение магнитудой 5,2 серьезно нанесло ущерб центральным районам Ташкента и оставило тысячи людей без крова. Событие стало толчком к развитию города после сейсмического землетрясения и современных восстановительных работ. Внедрение новых технологий для развития сейсмобезопасности и сейсмобезопасности при Ташкентском землетрясении, что является основным фактором высокой безопасности.*

Ключевые слова:

- Ташкентское землетрясение
- По данным сейсмоки
- Право на строительство
- Может помочь при землетрясениях.
- Стихийное бедствие 1966 года.
- Реконструкция Ташкента
- Сейсмические меры

Toshkent zilzilasi - Toshkent sh. seysmik jihatdan faol zona (8—9 balli seysmik rn)da joylashgan.. 1866—68 yillar va 1966-yildagi zilzilalar kuchli zilzilalar sirasiga kiradi. 1866-yil 26 apreldan 27 aprelga o‘tar kechasi sodir bo‘lgan zilzila oqibatida mozor va jome masjidlarining gumbazlari, jumladan, Xoja Ahror jome masjidi gumbazi, aholi yashaydigan imoratlar qulab, ko‘plab qurbonlar bo‘lgan. Bu haqda 19-asrda yashagan toshkentlik tarixchi Muhammad Solih "Tarixi jadidai Toshkand" asarida hikoya qilgan. Undan tashqari, Toshkentda 1868-yilning 4 fevral va 4 aprel, 1886-yilning 29 noyabr, 1924-yilning 7 iyun, 1946-yilning 3 noyabr kunlarida 7 va 8 balli zilzilalar bo‘lgan. Bu zilzila o‘choklari Toshkentdan tashqarida joylashgan bo‘lib, kuchi 8—9 ballga yetgan. 1966-yil 26 aprel soat 5 dan 22 min. o‘tganda Toshkentda kuchli zilzila

sodir bo'ldi. Zilzila o'chog'ining chuq. 8–10 km bo'lib, energiyasi 10y joulga teng, epitsentrda (sobiq Qashqar mahallasi va Labzak o'rnida) vertikal zarblar kuchli bulib, silkinish 8 ball, Rixter shkalasi bo'yicha magnitudasi 5,3, maksimal vayronalik maydoni — 10 km² ga yetdi. Bu maydon shim.g'arbdan jan.sharqqa cho'zilgan. Zilzilaga sabab bo'lgan Qorjontov tektonik darzligi shu yo'nalishda 8– 10 km chuqurlikni qamraydi. Bu zilzilani yer yuzidagi 100 dan ortiq seysmik styalar qayd qiddi. Birinchi kuchli zarbadan so'ng silkinishlar soni 500 dan ortgan, ulardan bir nechtasining kuchi 7 ballga yaqinlashgan. Ayniqsa, 1966-yilning 7, 9, 24 may, 4 iyun, 29 iyul kunlari sodir bo'lgan tebranishlar uyjoylarni vayron qilgan. Asosiy tebranish 1966—68 yillar mobaynida yuz berib turgan bir kancha aftershoklar bilan davom etdi. Zilzilaning kaytalab turishi 2000 dan ortiq bo'lganligini Markaziy seysmik stya qayd qilgan. Toshkent sh. geologik jihatdan Tyanshan tog' tizmasi g'arbidagi Toshkent — Mirzacho'l tog' oldi cho'kmasiga joylashgan. Toshkent zilzilasi tektonik xarakterga ega. Zilzila o'chog'i paleozoy, mezozoykaynozoy tog' jinslari yondashgan zonada joylashgan. 1957-yildan boshlab, Toshkent mineral issiq suvlari (1300– 1400 m chuqurlikda) tarkibidagi radon gazi miqdori orta bordi. 1965-yilning o'rtalarida 2 barobar ko'paydi va Toshkent zilzilasigacha shu miqdor saqlandi. Zilzila ro'y bergach, radon miqdori dastlabki holatga qaytdi. Demak, 1965-yil o'rtalarida chuqurlikdagi tog' jinslarining zichlashish jarayoni to'xtab, deformatsiya boshlangan. Bunda zilzila o'chog'idagi tog' jinslarining hajmi o'zgargan, so'ngra jinslar massasining uzilishiga olib kelgan. Radon zilzila darakchisi ekanligi isbotlandi. Zilzila natijasida 2 mln. m² dan ortiq turar joy, 236 ma'muriy bino, 700 ga yaqin savdo va umumiy ovqatlanish joylari, 26 kommunal xo'jalik korxonasi, qariyb 180 o'quv yurti, shu jumladan, 8 ming o'rinli maktab, 36 madaniy maishiy muassasa, 185 tibbiy va 245 sanoat korxonasi binolari zarar ko'rdi. 78 ming oila, 300 ming kishi boshpanasiz qoldi, 8 kishi halok bo'lib, 150 ga yaqin kishi jarohatlangan. Zilziladan zarar ko'rgan Toshkentga qo'shni respublikalardan g'amxo'rlik ko'rsatdilar. Boshpanasiz qolganlarni joylashtirish, sanoat va savdo korxonalari ishini qayta tashkil etish va boshqa tadbirlar belgilandi. Zilzila oqibatida vayron

boʻlgan uyjoylar oʻrnida zilzilabardosh yangi binolar qad koʻtardi. Qisqa vaqt ichida shahar qiyofasi oʻzgardi. Toshkent goʻzal, zamonaviy shaharga aylandi. Toshkent zilzilasi sinchiklab oʻrganish natijasida bu joylarda bir qancha seysmogen zonalar aniklangan va ularning xaritasi tuzilgan. Keyingi paytlarda shu zonalarda bir qancha kuchli zilzilalar sodir boʻlgan. 1977-yil Yangiyoʻl yaqinida, 1977-yil Tovoqsoyda, 1980-yil Nazarbekdagi zilzilalar shular jumlasidandir. Toshkent zilzilasi Oʻrta Osiyoda seysmologiya fanining rivojlanishiga sabab boʻldi. Oʻzbekiston, Qozogʻiston va Qirgʻizistonda seysmologiya ilmiy tadqiqot institutlari ochildi. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Seysmologiya instituti xodimlari zilzilani oldindan aytib berish, uning sabab va oqibatlarini oʻrganish boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

ADABIYOTLAR

Rustam oʻgʻli S. S. EKOLOGIK MATERIALLAR VA ENERGIYANI TEJASH TEXNOLOGIYALARI //Modern education and development. – 2024. – T. 13. – №. 2. – C. 135-140.

Rustam oʻgʻli, Shodiyev Sardor. "BARQAROR ARXITEKTURA TAMOYILLARI VA YONDASHUVLARI." *Modern education and development* 13.2 (2024): 141-146.

Rustam oʻgʻli, S. S. (2024). Avtoturargohlar kerakmi?.

Rustam oʻgʻli S. S. Qurilish konstruksiyalarini loyihalashda LIRA-SAPR dasturidan foydalanish. – 2024.

Rustam oʻgʻli, Shodiyev Sardor. "Qurilish konstruksiyalarini dasturlar asosida hisoblash." (2024): 330-335.

Rustam oʻgʻli, S. S. (2024). Qurilish jarayonlarida quruvchilar xavfsizligini taʼminlash uchun nima qilish kerak?.